

---

---

## PIYODALAR BILAN BOG'LIQ BO'LGAN YO'L TRANSPORT HODISASINI TADQIQ QILISH

Hamroqulov Rasuljon Madraimovich<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Toshkent davlat transport universiteti

Aliyev Abdusalom Abduraxmonovich<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Toshkent davlat transrort universiteti

### MAQOLA MA'LUMOTI

### ANNOTATSIYA:

---

#### MAQOLA TARIXI:

*Received: 07.10.2024*

*Revised: 08.10.2024*

*Accepted: 09.10.2024*

---

#### KALIT SO'ZLAR:

*yo'l transport  
hodisasi, avtomobil,  
piyoda, tezlik, tormoz,  
to'xtash, masofa,  
haydovchi.*

*Ushbu maqolada avtomobil bilan piyoda o'rtasida sodir bo'lgan yo'l transport hodisasini oldini olishda haydovchining transport vositasi texnik imkoniyatini aniqlash usuli keltirilgan. Bunda quyidagi xolatlarida aniqlanadi, yo'l transport hodisasi sodir bo'lganda avtomobil haydovchisini to'xtatib qolish orqali hodisani oldini olib qolish texnik imkoniyatiga ega bo'lgan yoki ega bo'lmaganligi avtomobilning to'xtatib qolish masofasi va uning vokea joyidan harakatga xavf paydo bo'lgan vaqtdagi uzoqlik masofasini taqqoslash orqali aniqlanadi.*

**KIRISH.** O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l transport hodisalarining oldini olish, ularda halok bo'lganlar va jarohatlanganlar sonini kamaytirishga qaratilgan bir qator qarorlar Davlat hokimiyati Oliy organlari tomonidan qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2022 yilda qabul qilingan "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-190-sonli qarori shular jumlasidandir. Qarorda, 2022-2025-yillarda avtomobil yo'llarida inson hayoti va sog'lig'ini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish ustuvor maqsadlardan biri etib belgilangan.<sup>5</sup>


Yo'l harakati qoidasida, piyoda - transport vositasidan tashqarida bo'lgan va yo'lda biror-bir yumush bilan band bo'lmagan shaxs. Nogironligi bo'lgan shaxslarning dvigatelsiz aravachasida harakatlanayotgan, velosiped, moped, mototsikl, chana, aravacha va bolalar

---

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-sonli qarori

yoki nogironligi bo‘lgan shaxslar aravachasini yetaklagan, shuningdek, harakatlanish uchun rolikli konkilar, dvigatelsiz samokatlar va boshqa shularga o‘xshash vositalardan foydalanayotgan shaxslar ham piyodalarga tenglashtiriladi:

Ushbu ta’rifga ko‘ra, piyodalar yo‘lda ishlarni bajaruvchi, masalan, yo‘l qismini ta’mirlash yoki tozalash, yo‘l belgilarini o‘rnatish yoki belgilarni qo‘llash bilan shug‘ullanadigan ishchilar hisoblanmaydi.



***1-rasm. 2021-2022 yillarda Toshkent shahrida piyodalar bilan sodir bo‘lgan yo‘l transport hodisalari tahlili<sup>6</sup>***

Piyoda bilan sodir bo‘lgan yo‘l transport hodisasini tadqiqot qilishda, unda haydovchi birinchi navbatda yo‘lni kesib o‘tayotgan piyodani ko‘rgan vaqtida, avtomobildan yo‘l transport hodisasi sodir bo‘lgan joyigacha qancha metr masofada bo‘lganligini  $S_a$  aniqlanadi. Voqeani haydovchi, piyoda va guvohlardan olingan ma’lumotlarga asosan avtomobilning to‘xtash masofasining uzunligini  $S_o$  hisoblanadi va uni  $S_o < S_a$  bilan taqqoslanadi.

Piyoda harakatga xavf tug‘dirib 10,9 metr masofani 6,3 km/soat tezlikda bosib o‘tgan bo‘lsa, Nexia rusumli avtomobil haydovchisi va 2 nafar yo‘lovchisi bo‘lgan, yuksiz va texnik xolati soz, taxminan 50-60 km/soat tezlikda boshqarib, o‘z vaqtida tormoz berib

<sup>6</sup> <https://yhxx.uz>

piyodani urib yuborishni oldini olish uchun texnik imkoniyatga ega bo'lganmi yoki yo'qmi?

Hodisa sodir bo'lgan joyda - yo'l asfalt, tekis, quruq, joylashuvi gorizontal, kechasi, sunniy yoritilgan – YTH hujjatlari va sud ekspertiza tayinlash qarori.

Matematika amallarini bajarishda quyidagi shartli belgilar qo'llanilgan<sup>7</sup>:

\* - ko'paytirish; <sup>2</sup> - kvadratga ko'tarish; / - bo'lish; 0,5- kvadrat ildiz chiqarish;

t<sub>1</sub> - Nexia avtomobili haydovchisining reaksiya vaqti 0,8 s;

t<sub>2</sub> - Nexia avtomobili tormoz tizimining ishga tushishining kechikish vaqti 0,1 s;

t<sub>3</sub> - Nexia avtomobili sekinlashish miqdorining kuchayish vaqti, 0,25 s;

j - Nexia avtomobilining sekinlashish miqdori 7,16 m/s<sup>2</sup>;

V<sub>a</sub> - Nexia avtomobilining harakat tezligi, 13,89-16,67 m/sek;

V<sub>p</sub> - piyodaning harakat tezligi, 1,75 m/sek;

S<sub>p</sub> - piyodaning xodisa joyigacha bosib o'tgan masofasi, 10,9 m.

Yo'l transport xodisasi sharoitida haydovchi Nexia avtomobilini to'xtatib qolish orqali xodisani oldini olib qolish texnik imkoniyatiga ega bo'lgan yoki ega bo'lmaganligi avtomobilning to'xtatib qolish masofasi S<sub>o</sub> va uning voqea joyidan harakatga xavf paydo bo'lgan vaqtdagi uzoqlik masofasi S<sub>a</sub> larni taqqoslash orqali aniqlanadi.

Ushbu yo'l transport hodisasida Nexia avtomobilining to'xtatib qolish masofasini quyidagicha aniqlanadi:

$$S_o = (t_1 + t_2 + 0,5 * t_3) * \frac{V_a}{3,6} + \frac{V_a^2}{25,92j}$$

$$S_o = (0,8 + 0,1 + 0,5 * 0,25) * \frac{50}{3,6} + \frac{2500}{25,92 * 7,16} = 27,7 m$$

$$S_o = (0,8 + 0,1 + 0,5 * 0,25) * \frac{60}{3,6} + \frac{3600}{25,92 * 7,16} = 30,5 m$$

Amaliy hisoblar natijasida 50-60 km/soat tezlikda harakatlangan Nexia avtomobilining to'xtatib qolish masofasi, tezliklarga mosligi hisoblab aniqlangan, 1-jadvalga qaralsin.

Piyoda 10,9 metr masofaga harakatlangan vaqtida Nexia avtomobilining voqea joyidan qancha masofa uzoqlikda bo'lganligi quyidagicha formula bilan aniqlanadi:

$$T_p = 3,6 * \frac{S_p}{V_p}$$

$$T_p = 3,6 * \frac{10,9}{1,75} = 22,4 sek$$

<sup>7</sup> Судебная автотехническая экспертиза. Ч.2.-М.1980 г.- 491 с.

$$S_a = \frac{V_a * T_p}{3,6}$$

$$S_a = \frac{13,89 * 22,4}{3,6} = 86,4 m$$

$$S_a = \frac{16,67 * 22,4}{3,6} = 103,7 m$$

Bajarilgan amallar natijasida 50-60 km/soat tezlikda harakatlangan Nexia avtomobilining hodisa joyidan qancha uzoqlikda bo‘lganligi 1-jadvalda keltirilgan.

1- jadval

V <sub>a</sub> , KM/c	S <sub>a,M</sub>	S <sub>o,M</sub>	Texnik imkoniyatga
50	86,4	27,7	<b>Ega bo‘lgan</b>
60	103,7	30,5	

Yuqorida bajarilgan amallarning natijalarini taqqoslash So < Sa ekanligini ko‘rsatdi.

Demak, ushbu yo‘l tranaport hodisasida harakatga xavf tug‘ilgandan boshlab haydovchi boshqaruvidagi Nexia avtomobilini o‘z vaqtida to‘xtatib qolish yo‘li bilan YTH oldini olib qolish uchun texnik imkoniyatga ega bo‘lgan.

Qarorda keltirilgan yo‘l transport hodisasida avtomobil haydovchisi harakatlarida YHQ talablariga ko‘ra qanday harakatlanishini aniqlash uchun, sud avtotexnika ekspertizasiga oid maxsus bilimlar talab etilmaganligi sababli, “Yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lishi vaziyatida, haydovchi Yo‘l harakati qoidalariga muvofiq qanday harakat qilishi kerak edi?” degan savol yuzasidan ekspertlar tadqiqot o‘tkazmaydi.

Haydovchining harakatlarida YHQ talablariga zid bo‘lgan yoki zid bo‘lmagan holatlarini aniqlash surishtiruv-tergov o‘rganlari tomonidan mazkur ish bo‘yicha to‘plangan barcha hujjatlar va daliliy ashyolarni inobatga olgan xolda yo‘l harakati qoidalaridan foydalanib mustaqil qaror chiqarishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-sonli qarori
2. <https://yhxx.uz>
3. Судебная автотехническая экспертиза. Ч.2.-М.1980 г.- 491 с.
4. Применение дифференцированных значений времени реакции водителя в экспертной практике. - М. 1987 г.

5. Использование в экспертной практике экспериментально-расчетных значений параметров торможения автотранспортных средств. ВНИИСЭ. 1995 г.

6. O'G, J. R. Y. R., O'G'Li, A. E. X., & Namroyevich, T. N. (2021). HAYDOVCHILARNI TAYYORLASHDA RAQAMLI O 'ZBEKISTON 2030 DASTURINI JORIY ETISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 749-754.

7. Ў Исоханов, Э Абдусаматов, С Турдибеков (2022). ЕНГИЛ ВА ЮК АВТОМОБИЛЛАР ИШТИРОКИДАГИ ЙТХ ТАҲЛИЛИ. IJODKOR O'QITUVCHI 2 (24), 216-219.

8. Ў Исоханов, Э Абдусаматов, С Турдибеков (2022). ПИЁДА ИШТИРОКИДА ЁНЛАНМА МАСОФА САҚЛАНМАСДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЙТХ ТАҲЛИЛИ. IJODKOR O'QITUVCHI 2 (24) 220-222.

9. У Исоханов, С Турдибеков, Э Абдусаматов (2023). ЕНГИЛ АВТОМОБИЛЛАРДА КЎРИНМАС ХУДУД ДА ЙЎЛ ТРАНСПОРТ ҲОДИСАЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРАЛАРИ. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY 1(6) 92-95.

10. OI Inoyatovich, AE Xalim o'g'li, TS Qodirovich (2023). AVTOMOBIL YO 'L EKSPERTIZASI BO 'YICHA YA'NI YO 'L SABABLI SODIR ETILGAN YTH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2 (18) 442-446.

11. ШК Хакимов, РГ Саматов, СС Ражапова, ДА Абдураззакова, Э Абдусаматов, Ш Аbruев (2022). СНИЖЕНИЕ КОЛИЧЕСТВА ВЫХЛОПНЫХ ГАЗОВ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ ПУТЁМ КОМПЬЮТЕРНОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПЕРЕКРЕСТКА. Экономика и социум 9 (100) 715-724.

12. ШХ Шерматов, ШИ Аbruев, ЭХ Абдусаматов, НХ Турсунов, ЖА Чориев (2022). МЕТОД ОПРЕДЕЛЕНИЯ ГОРЯЧИХ ЗОН ГОРОДСКИХ ДОРОЖНО-ТРАНСПОРТНЫХ ПРОИСШЕСТВИЙ. Экономика и социум 12-1 (103) 1097-1104.